

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SULAYMANOVA BARNO RAXMATILLAYEVNA**

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING NUTQIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy  
(PhD) on pedagogical sciences**

**Sulaymanova Barno Raxmatillayevna**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish  
metodikasini takomillashtirish ..... 3

**Сулайманова Барно Рахматиллаевна**

Совершенствование методики формирования речевых компетенций учащихся  
начальной школы.....23

**Sulaymanova Barno Raxmatillayevna**

Improving the methodology for developing speech competencies in primary school  
students.....43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 47

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SULAYMANOVA BARNO RAXMATILLAYEVNA**

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Oliy attestasiya komissiyasida  
B2025.1.Phd/Ped9437 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch (o'zbek, rus, ingliz) tilda Ilmiy kengashining veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Djamilova Nargiza Nuriddinovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Abdullaeva Kamola Abdurashidovna**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.Ped.03.04. raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276 -79-11; faks: (99871) 276-80-86. e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz

Dissertatsiya bilan O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27 uy. Tel.: (99871) 276 -79-11; faks: (99871) 276-80-86. e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2026 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A.Abdullayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, pedagogika fanlari  
doktori, professor

**N.M.Axmedova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Sh.A.Atadjanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
seminar raisi, pedagogika fanlari  
doktori, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yilayotgan yuqori talablar o'quvchilar bilish jarayonlarini shakllantirish muammosini hal etishda yangi, samarador pedagogik yondashuvlarni aniqlashtirishni taqozo etmoqda. Xorijiy tillarni boshlang'ich sinflardan o'qitilishi nutqni rivojlantirishga qaratilgan mavzulari, ko'nikma va malakalarga qo'yiladigan talablardan iborat xorijiy til o'qitish mazmunini modernizatsiyalashtirish va yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash metodikasini takomillashtirish yanada kuchaytirildi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha Xalqaro ta'lim kontsepsiyasida: "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"<sup>1</sup> strategik vazifa sifatida qabul qilingan xorijiy tillarni o'qitilishi nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha yirik loyihalarni amaliy hayotga tadbiq etishga qaratilgan tizimli ishlar bajarilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, qobiliyati va munosabati kabi xususiy jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini, til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ta'lim muassasalarida global ingliz tilini o'qitish jarayonida bir qator muhim kompetensiyalarni shakllantirish, shuningdek, chet tilni zamonaviy axborot texnologiyalari asosida o'qitishni samarali tashkil etish masalalari bo'yicha keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, CEFR (Evropa umumiy til kompetensiyalari mezon) talablari asosida o'quvchilarda lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish, turli zamonaviy o'qitish usullarini erkin tanlash, til rivojlanishiga qaratilgan mashqlar va multimediyali ta'lim dasturlaridan foydalanish orqali til o'qitish metodikasini yanada takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy tillarni o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi, qobiliyati va munosabati kabi xususiy jihatlarini, tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini inobatga olib sifat va samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodni har tomonlama bilimli, mustaqil fikrlaydigan shaxslar sifatida shakllantirish, shuningdek, ularni chet tillarini o'rganishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. "Xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqt-soati keldi. O'zbekistonda bir nechta xorijiy tillarni biluvchi zamonaviy kadrlar tayyorlash, shu sohada ilmiy izlanishlar olib borish, xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha samarali metodlarni takomillashtirish kerakligi"<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ya'ni, chet tilni o'qitishda kommunikativ faollikni rag'batlantiruvchi, shaxsga yo'naltirilgan va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan integrativ yondashuv asosida metodikani

---

<sup>1</sup> IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light .pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light.pdf)

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori

takomillashtirish; xalqaro tajribalarni o'rganish; boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ustuvor vazifalarni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurni shakllantirishda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi, samarali ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni shakllantirish imkoniyatini kengaytirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi PF-5538-son "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy-xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishida innovatsion g'oyalarni shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" deb nomlangan birinchi ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Muammonining o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda tillarni o'qitish metodikasi bilan J.J.Jalolov, G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, G.T.Maxkamova, T.Sattarov, I.Yoqubov, M.Djusupov, M.T.Irisqulov, F.I.Ikromxonova, M.Sh.Ruzmetova, Sh.X.Akbarova va boshqalarning tadqiqotlarida xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga oid muammolar atroflicha yoritilgan. Ta'limning turli bosqichlarida nutqiy kompetensiya masalalari bilan G'.Sh.Tajibayev, F.M.Rashidova, D.A.Tajibayeva, D.R.Pulatova, M.A.Sharipova kabilar tomonidan o'rganilgan.

Ta'limning turli bosqichlarida xorijiy tillarni o'qitish metodikasi haqida MDH davlatlari olimlaridan: I.N.Vereshagina, N.D.Galskova, N.I.Gez, G.V.Rogova, N.A.Gorlovalarning metodika sohasidagi ishlarida tadqiq etilgan. O'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish N.I.Jinkin, E.V.Ryabina, E.V.Arkipova, I.E.Zueva, E.N.Solovova kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Chet tillarni boshlang'ich sinflarda o'rgatishning pedagogik-psixologik asoslari L.S.Vigotskiy, J.Piaje, I.A.Zimnaya, M.P.Lvov, A.A.leontev, E.M.Katanova, E.I.Passov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Tillarni o'rgatish jarayonida muloqot ko'nimlalarini shakllantirish turli jihatdan uzoq horijiy davlat olimlari L.H.Yetenberg, J.Moon, T.Gordon, S.Krashen, C.T.Linse, J.Crandall, S.Canale, P.Driscoll, L.Cameron, S.Halliwell, D.Nunan, A.Pinter va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya

tadqiqoti Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini innovatsion metodlar bilan takomillashtirish va optimallashtirish.

o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini tashkil etishning metodik tizimini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan takomillashtirish;

ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligini aniqlash va metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

**Tadqiqotning obyekti** boshlang'ich sinf o'quvchilarini ingliz tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish jarayonidan iborat.

**Tadqiqot predmeti** boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish mazmuni, shakl, metodi va vositalaridir.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy taxlil, umumlashtirish, diagnostik ( so'rovlar, suhbat, so'rovnoma ), prognostik ( ekspert baholash, mustaqil bahoalrni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari og'zaki nutqni o'zlashtirish jarayonida mental model lingvistikasi asosida nutqiy idrok va ifodaning bosqichli qayta tashkil etilishi, semantik dekodlashning bolalar tafakkuriga xos neyro-kognitiv moslashuvi orqali ma'noni perseptiv qayta ishlash jarayonlarining rivojlanish dinamikasini tavsiflashga ko'ra aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish modeli nutqni qabul qilish va taqlid qilish orqali og'zaki ifodalashni rivojlantiruvchi metodik tuzilma sifatida til birliklarining ma'noviy faollashuvi nutqiy idrok integratsiyasi eshitish va talaffuz jarayonlaridagi idrok-ifoda bog'lanishi nutqiy avtomatlashuvning tabiiy shakllanish jarayonini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi multimodal kommunikativ asosda ko'rgazmali-harakatli rolli muloqot majmuasini ifodaviy ssenariy sifatida tashkil etish orqali tashqi nutqiy

faoliyatning ichki nutqqa o'tishiga yo'naltirilgan nutqiy internalizatsiya jarayonini tashqi nutqiy amallarning ichki nutqqa transformatsiyasiga ko'ratakomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi og'zaki muloqotda nutqiy birliklarning semantik yuklamasini anglash va so'zlarni funksional qo'llash muloqotni boshqarish qobiliyatining shakllanishi kognitiv-lingvistik bog'lanishga ko'ra oshirilgan

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning interfaol metodlarini takomillashtirish hamda o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini o'zlashtirish jarayonida kommunikativ bilim olish faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga "English language for primary education students" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

ingliz tilining boshlang'ich darajasiga muvofiq nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi "*Skill-Up*" elektron dasturiy ta'minot yaratilgan (O'zbekiston Respublikasi adliya vazirligi tomonidan berilgan Guvohnoma № DGU 52500; Talabmona raqami: DT 202505794; O'zbekiston Respublikasining Dasturiy mahsulotlar davlat reyesterida 13.06.2025 yil ro'yhatdan o'tkazilgan);

o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar tizimi ishlab chiqilgan;

nutq faoliyati turlari bilan ishlash strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** olib borilgan tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va tamoyillar, usullar hamda nazariy ma'lumotlar ilmiy manbalarga asoslangan bo'lib, muammo yuzasidan mahalliy va xorijiy olimlarning g'oyalari, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalari e'tiborga olindi. Tahlillar va tajriba-sinov ishlarining samaradorligi matematik-statistik usullar orqali ilmiy jihatdan asoslandi, berilgan xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy qilindi hamda olingan natijalar tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim mazmunini sinflar kesimida muvofiqlashtirish asosida takomillashtirilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy tushunchasini kengaytiradigan mezonlar, ko'rsatkichlar va texnologiyalari asoslangan. Nutqiy tayyorgarlik muammolarini shakllantirishning didaktik modeli zarurligi asoslab berildi va ishlab chiqildi; Darslarda yozma kichik matnlar tuzishga qaratilgan mashq va topshiriqlar tahlil qilinib, ular asosida nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchilarni mustaqil tinglab tushunish va erkin muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan mazmun va metodlar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, nutqiy kompetensiya elementlarini o'zlashtirishga oid bilim va ko'nikmalar amaliy-metodik jihatdan yoritilgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ingliz tili darslari orqali nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish va

ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu natijalar o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda, malaka oshirish kurslari hamda ingliz tili o'qituvchilari uchun ta'limjarayonida foydalanishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish mohiyatini oydinlashtirish va uning shakllanish ko'rsatkichlari, darajalari va mezonlarini aniqlash; boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik modelini ishlab chiqish va amaliyotda ushbu jarayonni metodik ta'minoti ishlab chiqildi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish tadqiqotidan olingan ilmiy natijalar asosida:

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari og'zaki nutqni o'zlashtirish jarayonida mental model lingvistikasi asosida nutqiy idrok va ifodaning bosqichli qayta tashkil etilishi, semantik dekodlashning bolalar tafakkuriga xos neyro-kognitiv moslashuvi orqali ma'noni perseptiv qayta ishlash jarayonlarining rivojlanish dinamikasini tavsiflashga oid takliflar "English language for primary education students" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 7-iyuldagi 22-01-154/24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi oshgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarida ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish modeli nutqni qabul qilish va taqlid qilish orqali og'zaki ifodalashni rivojlantiruvchi metodik tuzilma sifatida til birliklarining ma'noviy faollashuvi nutqiy idrok integratsiyasi eshitish va talaffuz jarayonlaridagi idrok-ifoda bog'lanishi nutqiy avtomatlashuvning tabiiy shakllanish jarayonini ta'minlashga oid takliflar "English language for primary education students" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 7-iyuldagi 22-01-154/24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qulay sharoit yaratilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi multimodal kommunikativ asosda ko'rgazmali-harakatli rolli muloqot majmuasini ifodaviy ssenariy sifatida tashkil etish orqali tashqi nutqiy faoliyatning ichki nutqqa o'tishiga yo'naltirilgan nutqiy internalizatsiya jarayonini tashqi nutqiy amallarning ichki nutqqa transformatsiyasiga oid takliflar "English language for primary education students" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 7-iyuldagi 22-01-154/24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini takomillashtirishga erishilgan;

boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi og'zaki muloqotda nutqiy birliklarning semantik yuklamasini anglash va so'zlarni funksional qo'llash muloqotni boshqarish qobiliyatining shakllanishi kognitiv-lingvistik bog'lanishga oid takliflar "English language for primary education students" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston milliy pedagogika universitetining 2025-yil 7-iyuldagi 22-

01-154/24-sonli ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish modelini takomillashtirish jarayonini tashkil etishning metodik tizimini takomillashtirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 5 ta (3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

**Dissertatsiya hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 140 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma'lumotlar shuningdek, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari, kompetensiya, kompetentlik, nutqiy kompetensiya atamalarining leksik izohi, mazmun-mohiyati boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish metodikasi nuqtai nazaridan o'rganilgan. Metodist olimlar, yirik tilshunoslarning fikr va tavsiyalari pedagogik muammo sifatida ilgari surilib, tahlil qilingan. Respublikamiz ta'lim tizimiga “kompetensiya”, “kompetentlik” atamasi 90-yillar o'rtalarida kirib keldi. Mutaxassislar tomonidan turlicha, jumladan, layoqat (J. Jalolov), omilkorlik (T.Sattorov), mahorat (pedagogikada), malaka (psixologiyada) kabi tushunchalar bilan nomlanib kelinmoqda.

Tadqiqot ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab izlanishlar “kompetensiya” tushunchasi asosida olib borilgan. Ilmiy ishlar natijalari bu tushunchaning mazmun jihatdan keng, turli yo'nalishlarda shakllanganini anglatadi. Bizning tadqiqotimiz ham shu yo'nalishga bog'liq bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari o'rganilgan. Mazkur kompetensiya kommunikativ kompetensiya tarkibiy qismi bo'lib, uning tuzilishi nutqiy va lingvistik kompetensiya hisoblanadi. Lingvistik kompetensiya shaxsning til tizimini bilish va undan foydalana olishni anglatib, o'quvchilarning tilning grammatikasi, so'z boyligi, fonetika qonuniyatlarini to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Nutqiy kompetensiya esa o'quvchilarning til orqali samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu esa ularning nutqiy faoliyatda fikrini aniq ifoda etish, o'zaro

tushunishga erishish va ijtimoiy vaziyatlarga mos ravishda tilni qo'llash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchi O.B.Qurbonova nomzodlik dissertatsiya ishida kompetensiyaga o'quvchilarning muayyan bir sohada sermahsul faoliyatini mustaqil olib borishi uchun oldindan tayyorlanadigan zaruriy talab sifatida qaralishi kerakligi haqida ta'kidlab o'tgan. E.V.Arkipovanning tadqiqot ishida esa nutqning ravon, tushunarli va ma'noli bo'lishi tovushlarning to'g'ri talaffuz qilinishiga bog'liq ekanligi hamda boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun jummalarni tovushlarga ko'chishi murakkab jarayon hisoblanib, nutq tafakkurni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etishini keltirib o'tgan. U.A.Masharipovanning tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini innovatsion usullar va ilg'or texnologiyardan foydalanib shakllantirishning samarali jihatlari yoritib o'tilgan.

Ingliz tilida nutqiy ko'nikmalarning tuzilishi aniqlanib, uning quyidagi komponentlari mavjudligi aniqlandi: 1) tinglab tushunish. 2) gapirish. 3) o'qib tushunish. 4) yozish.

Nutqiy kompetensiya komponentlaridan bo'lgan tinglab tushunish J.Richards fikriga ko'ra boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida aytilgan so'zlar, jumalar yoki matnlar ma'nosini tushunish qobiliyatidir. Bu ko'nikma boshlang'ich sinf o'quvchilarida so'zlarni talaffuz qilish, intonatsiya va ohangni aniqlash orqali rivojlanadi. Gapirish esa o'quvchining ingliz tilida o'z fikrini yoki his-tuyg'ularini og'zaki ifodalash qobiliyati ekanligini J.Harmer o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida keltirib o'tgan. O'qib tushunish D.Nunan ta'rifiga ko'ra yozma matnni o'qib, undagi ma'lumotni tushunish va talqin qilish qobiliyati hisoblansa, yozish ko'nikmasi o'quvchilarning ingliz tilida so'zlar, jumalar yoki qisqa matnlarni yozish orqali o'z fikrlarini ifodalash qobiliyati deb hisoblaydi.

Dissertatsiya ishida shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali nazariy-metodologik yondashuvlarga tayangan holda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarga tadqiqot jarayonida tayanildi va ular quyidagilar: kompetensiyaviy (o'quvchilar bilim va malakalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan), kommunikativ (tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish) hamda innovatsion (darsni qiziqarli, samarali va zamonaviy o'tilishi nazarda tutiladi) hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning mavjud holati o'rganib chiqilgan. Boshlang'ich sinf "Ingliz tili" darsligida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishga oid leksik, morfologik, sintaktik birliklarni nutqda o'rinli qo'llashga doir berilgan ta'limiy vositalar tahlil qilingan va nutqiy kompetensiya komponentlarini kompleks tarzda shakllantirishga oid didaktik tamoyillar atroflicha o'rganilgan. Ulardan tadqiqot ishida ongliklik (o'rganilgan bilimlarni ongli ravishda idrok etishi va ularni hayotiy tajriba bilan bog'lab borilishi), ko'rgazmalilik (ta'lim jarayonida ko'rgazmali didaktik materiallardan foydalanish), shaxsga yo'naltirilganlik (o'quv jarayonini o'quvchining qobiliyatlari, qiziqishlari va o'rganish uslubiga moslashtirish) va faollik (dars jarayoniga o'quvchini faol ishtrokchi sifatida jalb qilish va savol-javobga, muloqotga undash) kabi didaktik tamoyillar o'quvchilarni nutq faoliyati turlarini

samarali o'zlashtirishda nutqiy kompetensiya komponentlarini kompleks tarzda shakllantirishda atroflicha o'rganilgan.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar (V.N.Davidovich, A.N.Leontyev, I.Zimnaya, N.Jinkin va boshqalar) tahlili shuni ko'rsatdiki, nutqiy kompetensiyani shakllantirish ingliz tili ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchisining uslubiy normalarga rioya qilgan holda nutqiy faoliyatni amalga oshirishi, tinglab tushunish, o'qish, gapirish va yozish ko'nikmalarini mukammal egallashi natijasida shaklanadigan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasidir. Bu majmua o'quvchining nutqiy vaziyatlarda ushbu ko'nikmalarni o'rinli va samarali qo'llay olish qobiliyatini ifoda etadi. Bundan tashqari, nutqiy kompetensiya ijtimoiy voqea-hodisalarga sub'ektiv munosabat bildirish hamda og'zaki va yozma nutqning yuqori darajada rivojlanishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini bosqichlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda o'quvchilarning yoshga oid psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish muhim, chunki 1-sinf va 4-sinf o'quvchilari o'rtasida ushbu jihatlar bo'yicha sezilarli farqlar mavjud. Bolalarning psixologik, kognitiv hamda kommunikativ rivojlanish darajasi har bir sinf bosqichida o'zgarib boradi. Shuning uchun ingliz tilini o'qitishda bu bosqichlar sinf darajasiga mos holda belgilanadi. Har bir sinfning rivojlanish xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, turli yondashuvlarni talab etadi. Tadqiqot ishida ushbu xususiyatlar sinflar kesimida quyidagicha tahlil qilingan:

1-sinf o'quvchilari yangi tilni o'rganishning boshlang'ich darajasida bo'lib, xotira va diqqat ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmaganligi sababli nutqiy kompetensiyalar asosan audio-vizual usullar orqali shakllantiriladi;


2-sinf o'quvchilari aqliy jihatdan rivojlangan bo'lib, murakkabroq so'z va iboralarni o'rganish, oddiy iboralar bilan sodda suhbatlarda qatnashish ko'nikmalariga ega bo'la boshlaydilar;

3-sinf o'quvchilari mustaqil fikrlash va tilni analitik o'rganish qobiliyatiga ega bo'lib, asosiy grammatik qoidalarni tushunish hamda qo'llashni o'zlashtiradilar, "o'qishni o'rganish"dan "o'rganish uchun o'qish" bosqichiga o'tadilar;

4-sinf o'quvchilari murakkabroq ma'lumotlarni o'zlashtirib, fikrlarini mustaqil ifodalay oladilar, suhbatlarda faol qatnashib, fikr almashish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish daraja ko'rsatkichlari o'rganilib tahlil qilindi. Shu sababli, boshlang'ich sinflar "Ingliz tili" darsliklaridagi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish daraja ko'rsatkichlari aniqlanib, bu sinflarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmi hamda uni amalga oshirish bosqichlari ishlab chiqildi (1-rasm). Tadqiqot ishlarida ingliz tili ta'limida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirishda kompetensiyaviy, kommunikativ va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlarning asosiy omillaridan biri boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini til meyorlariga muvofiq shakllantirishdir. Bu jarayon o'quv faoliyatining jamoaviy xususiyati, bilimlarning mustahkam o'zlashtirilishi, tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq malakalarini nazorat qilish orqali amalga

oshiriladi. Bunda ta'lim oluvchining qobiliyatlari, intilishlari muhim ro'l o'ynaydi. Shu sababli, so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini o'rganish dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish daraja ko'rsatkichlari o'rganilib tahlil qilingan. Shu bois, 1-4 sinf "Guess What" darsliklaridagi nutqiy kompetensiyalarning shakllantirish daraja ko'rsatkichlari aniqlanib, bu sinflarda o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmi va uni amalga oshirish bosqichlari ishlab chiqilgan.



**1-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmi**

Ingliz tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish bo'icha tadqiqot ishlarida kommunikativ, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlarning asosiy omillardan biri o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini til meyorlari asosida shakllantirishdir. Bu jarayon o'quv faoliyatining jamoaviy xususiyati va bilimlarni chuqur o'lashtirish natijasida amalga oshiriladi. Natijada, boshlang'ich sinf o'quvchilari tinglab tushunish, gapirish, o'qib tushunish va yozish kabi nutqiy ko'nikmalarga ega bo'lib, o'zlarining subyektiv munosabatlarini ifodalash

qobiliyatini shakllantiradilar. Bu ko'nikma va malakalar o'quvchilarning intilishlari, qobiliyatlari va hayotiy tajribalaridan kelib chiqadigan xulosalarni hisobga olgan holda, nutqiy vaziyatlarda nomoyon bo'ladi va nazorat qilinadi. Shu sababli, so'nggi yillarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni dolzarb masala sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi**" deb nomlanib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda tuzib chiqilgan maxsus, nostandart mashq va topshiriqlarning, ta'limiy vositalarning o'rni va ahamiyati, tinglab tushunish, gapirish, o'qib tushunish va yozish kompetensiyalarini kompleks tarzda shakllantirishning bosqichma-bosqich o'tirish tizimi hamda bu kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha innovatsion metodlar, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish darajasini nazorat qilish bosqichi uchun baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda qo'llanilayotgan darslik-majmualar va ulardagi metodik yondashuv, mashq va topshiriqlarni, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasini o'rganish maqsadida 1-4-sinf ingliz tili "Guess What" darsliklarini tahlilimiz ob'ekti sifatida belgilab oldik. Ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi va AQSh xalqaro taraqqiyot agentligining O'zbekiston barkamollik uchun ta'lim dasturi hamkorligi natijasida ishlab chiqilgan bo'lib, 2022-2023 o'quv yilidan umumiy o'rta ta'lim maktablariga amaliyotga tadbiiq qilingan. Mazkur darslik boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirib rivojlantirishda samarali deb ta'kidlangan bo'lsada, ba'zi kamchiliklarini ham ta'kidlab o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik. Tadqiqotlardan ma'lumki, har qanday xorijiy tilni o'rganish va o'rgatishda mazkur tilning leksik birliklari va jumllarini tushunish muhim hisoblanadi. Agar o'rganilayotgan tilda so'z boyligi yetarli darajada bo'lmasa, har qanday nutq faoliyati turlarini egallashda qiyinchiliklarga duch kelinishini tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarda uchratdik. Ayrim mavzular va topshiriqlarni boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qiyinligi kuzatildi. Shuningdek, darslikda keltirilgan masq va topshiriqlar bilim darajasi turli bo'lgan o'quvchilar uchun murakkablik tug'diradi. Darslikni tahlil qilishdan maqsad ushbu kuzatilgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida o'quvchiga bilim olishida individual yondoshgan holda ta'lim jarayonlarini tashkil qilish nazarda tutiladi. Nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda osondan murakkabga qaratilgan topshiriqlarni ishlab chiqish tadqiqot ishimizning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu xulosalardan kelib chiqib, o'quvchilarga ingliz tili o'rgatishda ularning psixologik, fiziologik va lingvistik xususiyatlarini inobatga olgan holda mavzularni o'zlashtirishlariga qaratilgan qisqa, harakatli va o'yinli topshiriqlarga boy qilinishi maqsadga muvofiq deb topildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda yuqorida ta'kidlanganidek, darslikdagi mavzularni o'zlashtirishga qaratilgan qisqa harakatli topshiriqlar o'quvchilarni nutq faoliyati turlarini egallashlarida katta hissa qo'shadi. Shu maqsaddan kelib chiqib, Jismoniy harakatlarga asoslangan (TPR)

metodini samarali deb topilib tadqiqot ishida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda tavsiya qilindi, chunki ularning yoshi va faol tabiati jismoniy harakatlarga asoslangan o'rganishga mos keladi. Total Physical Response (TPR) metodi-bu til o'rganishda jismoniy harakatlar orqali so'zlarni va iboralarni o'rganishga asoslangan metod bo'lib, asosan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun samarali hisoblanadi. Bu metodni amerikalik psixolog Jeyms Asher 1960-yillarda ishlab chiqqan bo'lib, u til o'rganishni tabiiy ravishda, ona tilini o'rganish jarayoniga o'xshabtib amalga oshirishni maqsad qilgan. TPR metodining o'ziga hos xususiyatlari: jismoniy faollik, qiziqarli muhitni yaratish va o'quvchilarda ta'lim jarayonida stressni kamytirish nazarda tutiladi. Bu metod dars jarayonida mavzuni yanada mustahkamlash maqsadida takrorlash, oddiy jumalardan murakkab jumalarga o'tish va bu orqali ijobiy muhitni yaratish asosiy tamoyillari hisoblanadi. Shuningdek, J.Asher bu orqali o'quvchilarning xotirasi mustahkamlanishi, tinglash va tushunishni rivojlantirishi, o'quvchilarda hayajonni kamaytirishi hamda aynan boshlang'ich sinf o'quvchilariga mos kelishini bu metodning asosiy afzalliklaridan deb bilgan. Har bir metodning afzallik tomonlari bo'lganidek, kamchiliklari ham mavjud bo'lganidek, TPR metodida ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilariga mosligi, murakkab jumalar uchun cheklanganligi hamda grammatik qoidalarining uchratilmashligi kamchiliklari sifatida keltirib o'tilgan.

Tadqiqot ishlarini tahlil qilganda va tajriba-sinov jarayonlarida ushbu metod qo'llanilganda asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish hamda gapirish ko'nikmalarini shakllantirib rivojlantirishiga erishildi. O'qituvchi og'zaki berilgan buyruqlari (Stand up! close the door! open the window!) ni eshitib, ularni tushunish va harakatlar bilan bajarish orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish kompetensiyalari shakllanib boradi. Buyruqlarni takrorlash, keyinchalik esa o'zlari buyruq berish orqali gapirish ko'nikmalari shakllanadi. TPR metodi to'g'ridan-to'g'ri o'qib tushunish va yozish kompetensiyalariga yo'naltirilmagan bo'lsa-da, yozma buyruqlarni o'qib harakat qilish (masalan, "Write your name, read the words" deb yozilgan kartochkalarni ko'rib, ismini yozish, so'zlarni o'qish) orqali shakllantirib borish nazarda tutiladi. Quyida (1-jadval) boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini "Storytelling" (Hikoya aytish) orqali shakllantirish texnologiyasida TPR, Scaffolding, Visual-based learning metodlarini qo'llagan holda shakllantirish bosqichlari keltirilgan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda, mazkur ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan ingliz tili o'qituvchilarining mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga faol munosabatini tahlil etgan holda, o'quvchilarga bilim berishda, kommunikativlik, kreativlik, tinglab tushunish malakalari, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, mazmunan uzviyligi va uzliksizligini ta'minlagan holda, ta'lim sifat va samaradorlik natijasi aniqlanib baholandi hamda uning amaliy modeli ishlab chiqildi (2-rasm). Mazkur model doirasida ta'lim olayotgan o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda tinglab tushunish, kichik matnlarni qayta hikoya qilish, gapirish ko'nikmalarini o'sishi va fikrni yozma bayon qilish malakalariga ega bo'lishi orqali tajriba-sinov jarayonida nutqiy faollikni namoyon etdi.

## 1-jadval.

### Nutqiy kompetensiyalarni storytelling orqali shakllantirish bosqichi

Bosqich	Faoliyat	Maqsad	Namuna
Hikoya aytishga tayyorgarlik (pre-storytelling)	E'tiborni jalb qilish	Hikoyani qiziqarli tarzda qilish ( ko'rgazmali qurollar, real predmetlar orqali)	Rasm ko'rsatilib "bugun qanday hayvon haqida gaplashamiz" deb o'quvchilarga murojaat qilish
	Oldingi bilim va tajriba bilan bog'lash	Hikoya qahramonlariga oid fikrlarni "aqliy hujum" usulidan foydalanib savol-javob qilish	"Who knows the stories about animals?"
	O'rganilgan tilni takrorlash	Mavzuga oid avval o'rganilgan so'z va so'z birikmalarini takrorlash	Hayvonlarning nom va ranglarini kartochkalar orqali takrorlash (wolf, forest, bear)
	Mavzuga oid yangi so'zlarni o'rganish	Hikoyani tushunish uchun zarur bo'lgan so'z va so'z birikmalarini oldingi bilim bilan bog'lagan holda o'rgatish	Hikoyadagi 3-4 ta asosiy yangi so'zlarni rasmlar (forest, basket, wolf) orqali TPR metodidan foydalanib tushuntirish
	Hikoyani taxmin qilish	O'quvchilardan hikoyani yakuni qanday bo'lishini oldindan aytib berishlarini so'rash	"Sizningcha qizil qalpoqcha qaerga ketayotgan bo'lishi mumkin?" (How do you think, where was the little red hood going?)
	Tinglash maqsadini belgilash	Ma'lum bir sabab uchun tinglashni ta'minlash	"hikoyani tinglab oxirida qiz nimani o'rganadi shuni topamiz?"
